

GULJAHON MARDONOVANING IJODIY USLUBI VA BADIY-ESTETIK QARASHLARI

Акramova Muhayyo

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining zamonaviy vakillaridan biri bo'lgan Guljahon Mardonovaning ijodiy uslubi va badiiy-estetik qarashlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Adibaning asarlarida inson ruhiyati, ayol obrazining badiiy talqini, ma'naviy qadriyatlar hamda jamiyat va shaxs munosabatining aks etishi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining badiiy tafakkuri, realistik tasvir usuli, psixologik tahlilga moyilligi va lirik-falsafiy mushohada xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, Guljahon Mardonova ijodida milliylik va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi, insonparvarlik konsepsiyasi hamda estetik ideal masalalari tahlil etiladi. Maqolada adibaning zamonaviy o'zbek adabiy jarayonidagi o'rni va badiiy mahorati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Guljahon Mardonova, ijodiy uslub, badiiy-estetik qarashlar, ayol obrazlari, realizm, psixologizm, zamonaviy o'zbek adabiyoti, badiiy tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе анализируются творческий стиль и художественно-эстетические взгляды современной представительницы узбекской литературы Гульжахон Мардановой. В произведениях писательницы раскрываются проблемы духовного мира человека, художественная интерпретация женского образа, национальные ценности, а также взаимоотношения личности и общества. В ходе исследования освещаются особенности художественного мышления автора, реалистический метод изображения, склонность к психологическому анализу и лирико-философская направленность её творчества. Кроме того, рассматриваются вопросы гармонии национальных и общечеловеческих идей, концепция гуманизма и эстетический идеал в произведениях Гульжахон Мардановой. В результате исследования обосновывается место писательницы в современном литературном процессе Узбекистана и её художественное мастерство.*

Ключевые слова: *Гульжахон Марданова, творческий стиль, художественно-эстетические взгляды, женский образ, реализм, психологизм, современная узбекская литература, художественное мышление.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the creative style and artistic-aesthetic views of Guljahon Mardonova, a contemporary representative of Uzbek literature. The study examines the depiction of the human spiritual world, artistic interpretation of female characters, national values, and the relationship between the individual and society reflected in the writer's works. Particular attention is paid to the author's artistic thinking, realistic method of representation, tendency toward psychological analysis, and lyrical-philosophical orientation of her творчество. The article also explores the harmony of national and universal ideas, the concept of humanism, and the aesthetic ideal in Guljahon Mardonova's works. The research*

substantiates the writer's role and significance in the modern literary process of Uzbekistan.

Keywords: *Guljahon Mardonova, creative style, artistic and aesthetic views, female image, realism, psychologism, modern Uzbek literature, artistic thinking.*

KIRISH

O'zbek adabiyotshunosligida yozuvchi shaxsining ijodiy uslubi va estetik qarashlarini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir ijodkor badiiy tafakkuri orqali davr ruhini, jamiyat muammolarini hamda inson ma'naviy olamini aks ettiradi. Guljahon Mardonova ijodi ham zamonaviy o'zbek adabiy jarayonida o'ziga xos badiiy-estetik yo'nalishga ega bo'lib, unda realizm, psixologizm va falsafiy mushohada ustuvor o'rin egallaydi[1].

Ijodkor ijodiy qarashlarining shakllanishida milliy adabiy an'ana, xalq og'zaki ijodi hamda XX asr o'zbek nasrining rivojlanish bosqichlari muhim rol o'ynagan. O'zbek adabiyotida inson ruhiyati va jamiyat munosabatlarini chuqur yoritish tendensiyasi Mardonova ijodiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan[2].

Yozuvchi asarlarida hayot voqeligi badiiy umumlashtirish orqali aks ettirilib, insonning ma'naviy izlanishlari markaziy masalaga aylantiriladi.

G. Mardonova ijodining yetakchi belgilaridan biri – realizmdir. U hayot hodisalarini ideallashtirmasdan, real ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Qahramonlar kundalik hayot vakillari bo'lib, ular orqali jamiyatdagi ma'naviy muammolar ochib beriladi[3].

Yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlil usulidan samarali foydalanadi. Qahramonning ichki monologi, ruhiy ziddiyatlari hamda ong oqimi elementlari orqali inson xarakteri ochiladi. Bu hol zamonaviy o'zbek nasriga xos muhim badiiy xususiyat sifatida baholanadi[4]. G.Mardonova ijodida voqelik tasviri ko'pincha falsafiy mulohazalar bilan uyg'unlashadi. Adib inson hayoti, vaqt, vijdon, axloqiy tanlov kabi masalalarni badiiy-estetik nuqtai nazardan talqin etadi. Natijada asarlar nafaqat voqeabandlik, balki tafakkur mahsuli sifatida ham qimmat kasb etadi[5].

Yozuvchining tili sodda, xalqona va tabiiyligi bilan ajralib turadi. U ortiqcha bezakdorlikdan qochib, mazmuniy ta'sirchanlikni ustuvor qo'yadi. Metafora, ramziy obrazlar va dialoglar xarakter ochishga xizmat qiladi[6].

Adiba estetik qarashlarining markazida inson shaxsi turadi. Uning fikricha, adabiyot inson qalbini tarbiyalovchi ma'naviy kuchdir. Shu sababli yozuvchi qahramonlarini axloqiy tanlov holatiga olib keladi[7].

Mardonova san'atning asosiy vazifasini hayot haqiqatini ochish deb biladi. Yozuvchi ijtimoiy muammolarni yashirmasdan, real ruhda tasvirlaydi. Bu esa uning ijodini realizm an'analari bilan bog'laydi[8]. Adiba asarlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va mentalitet tasviri mavjud bo'lsa-da, ilgari surilgan g'oyalar umuminsoniy xarakter kasb etadi. Shu jihat Mardonova ijodining estetik qimmatini oshiradi[9].

G. Mardonova obrazlarni: psixologik portret, xarakterli detal, individual nutq, ichki konflikt vositasida yaratadi. Qahramonlarning ichki o'zgarishi syujet rivojini belgilaydi.

Adiba uchun obraz – g‘oyaning tashuvchisi emas, balki tirik inson ruhiyatining badiiy ifodasidir[10]. “Quyoshim – enam” voqeiy qissasi Ona obrazini yaratishda mutlaqo yangi yo‘ldan borgan. Guljahon Mardonova yaratgan Ena – yurtimizning janubiy sarhadlaridan bo‘lmish Qashqadaryoliklarga xos. Xarakter xususiyati, hayotga qarashi, munosabati, bola tarbiyasidagi o‘ziga xosligi, liboslari-yu qishloq ayollariga xos taqinchoqlari bilan adabiyotdagi boshqa onalar obrazidan ajralib turadi. Kitobga so‘zboshi yozgan filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov “Qishloq tongi. Ko‘rpalarga burkanib olgan bolalik. Beshikda uxlayotgan chaqaloq, tuya va sigir sog‘ayotgan ona. Bularning barida latiflik, tabiiylik, obrazlilik – bir so‘z bilan aytganda chinakam ko‘ngil mavjlari, chin adabiyot bor, o‘ziga xos she‘riyat bor”, deb yozganda haqdir. Guljahon Mardonovaning “Quyoshim – enam” kitobi bir qarashda bitta oila tarixiga, bitta Badaxshon qishlog‘i udumlari va odamlariga bag‘ishlangandek ko‘rinadi. Fayzli kunlar, bayramlar, hayit va to‘ylar Onaning ko‘z o‘ngidan o‘tadi. Ayni damda bunda boshiga yog‘ilgan fojiali kunlarda Xudoning qismat imzosiga bo‘yin egib, jigarlariga “Xudoning yozgani – yoqalashasanmi?” deb sabr tilagan chinakam o‘zbek Onasining timsoli mujassamdir», deya ta‘kidlaydi. Qolaversa, kitobda chin mehnatning gashti, deylik, jun titish, ip yigirish, jo‘lxurs, tuzliq, bo‘g‘cha, g‘ojari, arabi gilam to‘qish, kigiz bosish, joypesh tikish – nomlari unutilayotgan qadriyat va hunarlar bayoni keladi. Xo‘sh, bu ishlarni bugungi yosh onalarning qay birlari biladi? Mutolaa davomida ana shunday haqli savollarni qo‘yaverasiz. O‘z-o‘zidan kitobdagi voqealar ichra yashay boshlaysiz[11]. Xususan, Guljahon Mardonovaning “Quyoshim enam” kabi hikoyalarda ona obrazi yuksaklikka ko‘tarilib, o‘zbek onalari, o‘zbek ayollari mohirona tasvirlangan. Ushbu tasvirlar orqali nafaqat onalar o‘zbek ayollari balki o‘zbek xalqining fel- atvori, tabiati, sabri kabi fazilatlar ham mohirona yoritilgan.

Adiba ijodi zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik realizmning rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Uning asarlarida insonning ma‘naviy izlanishi, jamiyat bilan ziddiyati hamda axloqiy mas‘uliyat masalalari yuksak badiiy darajada ifodalangan.

Shu sababli G. Mardonova ijodi milliy adabiyot taraqqiyotida muhim estetik hodisa sifatida baholanadi.

Xulosa. Guljahon Mardonova ijodiy uslubi realizm, psixologizm va falsafiylik uyg‘unligi bilan xarakterlanadi. Yozuvchi badiiy-estetik qarashlarida insonparvarlik, haqiqatparastlik hamda milliy qadriyatlarga sodiqlikni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Uning ijodi o‘zbek adabiyotida inson ruhiy olamini chuqur tasvirlash an‘analarini boyitgan muhim adabiy hodisalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
2. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy asar tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Rasulov A. O‘zbek nasrida psixologizm. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2007.

6. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent, 1983.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
8. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
9. Qo'chqorov R. Badiiy tafakkur va uslub. – Toshkent: Fan, 2010.
10. Solijonov Y. Adabiy jarayon va mahorat masalalari. – Toshkent: Akadernashr, 2012.
11. Xudoymurodova X. M. NEW RENAISSANCE international scientific journal.2023.